

13.04.2023 yil

**KO'CHIRMA**

**QATNASHDILAR:** kaf.mud. Mansurov M.A., kafedra a'zolari.

**TASHQI TAQRIZCHI:** TDIU dots. YUsupova D.T.

**KUN TARTIBI**

Kafedra katta o'qituvchi Maxmudova D.M. «Бизнес-планирование» fanidan «Текущая оценка финансовых показателей и прогнозирование объемов продукции» mavzusidagi ochiq darsini muhokama qilish.

**SO'ZGA CHIQDI:**

**Dots. i.f.n. YUsupova D.T.** – katta o'qituvchi Maxmudova D.M tomonidan ma'ruza 2023 yil 10 aprel 13r-19 guruh talabalariga o'qildi. Ma'ruzachi dastlab mashg'ulotning rejasi va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirdi. So'ngra reja bo'yicha barcha savollar bosqichma-bosqich tushunarli, ravon tilda bayon etildi. Dars o'tilganda talabalar tomonidan bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishda moliyaviy ko'rsatkichlarini belgilashda va prognozlash turlarini qo'llanishi samaradorligiga tarif berilib, ularning kelib chiqishi, korxonada asosiy ko'rsatkichlariga belgilangan moliyaviy baholashning ta'siri, ishlab chiqish resurslardan foydalanishni optimallashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni darajasi moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri to'g'risida tushunchalar qiziqarli misollar yordamida o'tkazildi. Dars yakunida mavzu bo'yicha talabalarga tarqatma materiallar va test savollari ma'ruzachi tomonidan taqdim etildi va mustaqil ish mavzulari berildi.

**Dots. Mavlyanberdieva X.M.** – Kafedra katta o'qituvchi Maxmudova D.M. katta o'qituvchi tajribali o'qituvchilarimizdan hisoblanadi. U talabalarga nisbatan juda talabchan, darslarni qiziqarli olib boradilar. Ma'ruza zamonaviy texnika vositalari va prezentatsiyalar yordamida o'tkazildi, va talabalar uchun tushunarli, ravon tilda olib borildi. Ma'ruzaning rejasida ko'rib chiqilgan masalalar bir-biri bilan uzviy bog'langan va ma'ruzaning mavzusini to'liq yoritib bera oladilar. Ma'ruzaning o'qilishi unga nisbatan qo'yiladigan talablarga javob beradi.

**TAVSIYALAR:** Tarmoq miqyosida texnologiya va iqtisodiyot sohasidagi yangiliklar va ilg'or tajribalardan dars jarayonida foydalansa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**KAROR KILINDI:**

1. Yukorida keltirilgan tavsiyalar inobatga olinsin.
2. Institut tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan «Professor-o'qituvchilar ochiq ma'ruzasini baholash» mezoniga ko'ra katta o'qituvchi Maxmudova D.M. katta o'qituvchi ochiq ma'ruzasi yaxshi baho bilan baholandi.

Kafedra mudiri

Kotiba



Mansurov M.A.

Muxiddinova D.

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining**  
**«Korporativ boshqaruv» kafedrasida katta o'qituvchi Maxmudova D.M.ning**  
**«Бизнес-планирование» fanidan**  
**«Текущая оценка финансовых показателей и прогнозирование объемов**  
**продукции» mavzusida ochiq dars ma'ruzasiga**


**TAQRIZ**

Mustaqillik yillarida yuritilayotgan iqtisodiy sohadagi tub islohotlarni olib borishdan ko'zlangan maqsad mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'z mavqeini yanada oshirish orqali jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga yo'naltirilgandir.

“Бизнес-планирование” fani iqtisodiy yo'nalishining talabalarga to'qimachilik korxonalarida va tarmoqdagi boshqaruv muommolarni o'rganishga va ularni bartaraf qilish yo'llarini topishda yordam beradi. Yengil sanoat va to'qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish uchun har bir talaba iqtisodiy bilimlarni chuqur o'rganishi va ularga to'g'ri baho bera olishi lozim. Ushbu o'tilgan ma'ruza mashg'ulotida talabalarga to'qimachilik korxonalarida moliyaviy reja ko'rsatkichlarini baholash, ishlab chiqarish bashoratlari bosqichlari va unga ta'sir etuvchi omillar haqida ma'lumot berildi. Bundan tashqari to'qimachilik korxonalarida ko'rsatkichlar asosida mahsulot sotishdan olingan foydasi hajmini hisoblash hususiyatlari misollar yordamida tushuntirib berildi.

Umumun olganda ma'ruza mashg'ulot yuqori pedagogik mahorat bilan o'tkazildi, talabalarga tushunarli, sodda, ravon tilda bayon etildi. Amaliy mashg'ulot unga nisbatan kuyiladigan talablarga yukori darajada javob beradi va ijobiy baholanadi.

“Korporativ boshqaruv” kafedrasida,  
dots., i.f.n.



Yuldashev S.N.

**Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instutining**  
**«Korporativ boshqaruv» kafedrasi katta o'qituvchi Maxmudova D.M.ning**  
**«Бизнес-планирование» fanidan**  
**«Текущая оценка финансовых показателей и прогнозирование объемов продукции»**  
**mavzusida ochiq dars ma'ruzasiga**

**TAQRIZ**

Ma'lumki har qanday iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish tashkil etadi. Ishlab chiqarishning qanchalik rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy darajasini ko'rsatib beruvchi asosiy omil hisoblanadi. SHu boisdan har qanday davlat ishlab chiqarishga, iqtisodiyotning muhim o'zak tarmoqlarini yanada rivojlantirishga alohida e'tiborini qaratadi. Ana shunday tarmoqlardan biri to'qimachilik majmui sanaladi. To'qimachilik sanoat korxonalari ishlab chiqarishining natijaviy ko'rsatkichlari tayyorlanadigan xom-ashyoning sifat ko'rsatkichlariga, shuningdek uni qayta ishlash texnologiyasining zamonaviyligiga bog'liq bo'ladi. SHu boisdan, ishlab chiqarishni tashkil etish samaradorligiga ahamiyat berish talab etiladi. O'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishlab chiqarish tuzilmasi unga moslanuvchanlikni ta'minlash maqsadida o'zlarining biznes rejalarini tuzadilar.

SHuning uchun katta o'qituvchi Maxmudova D.M. tomonidan "Бизнес-планирование" fanidan iqtisod yo'nalishdagi talabalar uchun o'tilgan ma'ruza mashg'ulot bo'yicha ochiq dars ma'ruzasi to'qimachilik korxonalarida moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash turlari va inlab chiqarish hajmini hisoblash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Moliyaviy rejaning bosqichlari, ularning hisobi hususiyatlarini va bu ko'rsatkichlarni samaradorligini oshirish yo'llarini taxlil qilindi. Ma'ruzachi tomonidan talabalarga ushbu mavzuni tushuntirishda zamonaviy pedagogik texnologiya hamda axborot vositalaridan foydalandi. Talabalar bilimini yanada mustahkamlash maqsadida ular bilan faol interaktiv usullardan foydalanish orqali yaqin muloqot o'rnatildi.

Dars mashg'uloti unga qo'yiladigan talab darajasida olib borildi, talabalarga tushunarli, sodda, ravon tilda bayon etildi. Ma'ruza unga nisbatan qo'yiladigan talablarga javob beradi va ijobiy baholanadi.



**Юсупова Д.Т.**